

# Tong

# yulduzi

Vatan yagonadir,  
Vatan bittadir!

N:9 (67174)

2018-yil 26-fevral

201  
Alisher Navoiy  
shahridagi  
O'zbekiston MK


www.tongyulduzi.uz

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqq boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN - 2010-6092

**1-MART – ZULFIYAXONIM  
TAYALLUD TOPGAN KUN**



**ZULFIYANING  
CHEVARASIMAN**

3-bet



**KITOBXON QIZGA  
«SPARK» BERILDI**

– Kitob o'qib, buyuk kelajakni bunyod etamiz, – deydi «Yosh kitobxon» tanlovining Respublika bosqichi g'olibi, Prezident sovg'asi – «Spark» avtomashinasi sohibasi Samarqand viloyati, Narpay tumanidagi 17-umumta'lim maktabi o'quvchisi Mohiniso SHOMURODOVA.



Kelgusida boshlang'ich sinf o'quvchilari besh kunlik o'qish tizimiga o'tkazilishi ota-onalar va pedagoglarning ko'nglidagi gap bo'ldi. Ayniqsa, ushbu xayrli maqsad joriy yilning 1-martidan 1-sinflarda joriy etilishi, ayni muddao.

2-bet

**ENDI BESH KUN O'QIYMIZ**



Inson ezgulikni va ulug'likni orzu qilishi kerak.



## MEHR KO'NGIL KALITIDIR



**BMTning Bolalar jamg'armasi, ya'ni YUNISEF tomonidan nogironligi bo'lgan shaxslar, xususan, imkoniyati cheklangan bolalar mavzusini ommaviy axborot vositalarida keng yoritish, jamiyatda bunday insonlarga nisbatan sog'lom munosabatni shakllantirish masalalariga bag'ishlangan davra suhbatiga taklif etilganimda, yaqinda Buxoro viloyatiga qilgan xizmat safarim yodimga tushdi.**

Buxorolik ustoz-murabbiylar bilan bo'lgan uchrashuvlarning birida Buxoro shahridagi 4-DIUMning ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari Saodat opa Quدراتova so'z olib, uyda ta'lim oluvchi nogironligi bo'lgan bolalarga alohida e'tibor qaratishimiz, ayniqsa, ijodkor o'quvchilarning ijodini gazetada ko'proq yoritib borishimiz lozimligi haqida fikr bildirgan edi. Kuni kecha opadan maktub oldik. Unda «Vatanimni kuylayman!» shiori ostida o'tkazilgan tadbirida ko'plab bolalar qatori imkoniyati cheklangan o'quvchilar ham faol ishtirok etgani, hatto g'oliblar safidan joy olgani haqida faxr bilan yozibdi. Jumladan, 2-«G» sinf o'quvchisi Jamshid Naimov munosib ishtiroki uchun, 6-«G»dan Shahzod Zohirov chiroyli husnixat, 7-«B»

sinf o'quvchisi Jasmina Yo'ldosheva rasmlar yo'nalishi bo'yicha g'olib bo'lib, maktab ma'muriyati tomonidan munosib taqdirlandi. Saodat opaning maktubini o'qib, biz ham juda xursand bo'ldik. G'oliblarni chin dildan tabriklagan holda gazetamizning navbatdagi sonlarida maktab o'quvchilarning faoliyatini kengroq yoritishni maqsad qildik.

Joriy yilning 16-fevralida YUNISEF tomonidan tashkil etilgan davra suhbatida yurtimizdagi ommaviy axborot vositalari rahbarlari, jurnalistlar hamda nodavlat-notijorat tashkilotlarining vakillari qo'shma media-reja ishlab chiqish va ommaviy axborot vositalarida nogironligi bo'lgan insonlar masalalarini keng yoritishni muhokama qilishdi.

Bundan yigirma yillar avval

**TAHRIRIYATDAN: Aziz o'quvchilar! Keling, atrofimizga teran nazar tashlaylik! Imkoniyati cheklangan bolalarga achinish bilan emas, aksincha, ularga sog'lom tengdoshlarimizdek munosabatda bo'laylik. Ularning haq-huquqlarini to'la ro'yobga chiqarishda faol ishtirok etaylik! Bir davrada, yaqin do'st, o'rtoq bo'lib, tadbirlar, bayramlar o'tkazaylik! Zero, imkoniyati cheklangan bolalar ham shu jamiyatning to'laqonli a'zolaridir.**

## ENDI BESH KUN O'QIYMIZ

**Gazetaning navbatdagi sonini nashrga tayyorlash jarayonida telefon jiringladi.**

– Assalomu alaykum, men Andijondan telefon qilyapman. Nabiram Shahriyorbek Xo'jaobod tumanidagi 5-umumta'lim maktabining 1-sinfida o'qiydi. Eshitishimga qaraganda, shu yilning 1-n. arudan 1-sinf o'quvchilari shanba kuni darslarga bormas emish, shu rostmi?

– Ha, joriy yilning 1-martidan boshlab umumta'lim maktablarining 1-sinf o'quvchilari haftasiga besh kunlik o'qish tizimiga o'tadi.

– Buncha yaxshi, nabiram a'lo baholarga o'qisa-da, shanba kunga kelganda juda charchab qolayotgandi. Uni bu ahvolda ko'rib, ba'zan shanba kuni darsga yuborgim kelmasdi. Endi bu kuni nabiram bilan birgalikda muzeylarga, tarixiy obidalariga sayohatga boradigan bo'ldik, – dedi Dilorom opa hayajonini yashirolmay.

Bolajonlarimiz – bizning kelajagimiz. Ertamiz egalarining jismonan va ma'nan sog'lom ulg'ayishlari uchun davlatimiz tomonidan keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Kelgusida boshlang'ich sinflarni o'qitish tizimi besh kun etib belgilanishi ota-onalar va pedagoglarning ko'nglidagi ish bo'ldi. Ayniqsa, ushbu xayrli maqsadning ayni kunlarda 1-sinflarda joriy etilishi, ayni muddao.

Shuningdek, yangi o'quv yilidan bosqichma-bosqich qolgan boshlang'ich sinflar ham ushbu tizimga o'tkaziladi. Shu munosabat bilan hozirda vazirlik va hamkor tashkilotlar tomonidan joylarda ota-onalar o'rtasida keng qamrovli targ'ibot-tushuntirish ishlari olib borilmoqda.



**– Bugun 1-sinflar uchun mo'ljallangan darsliklar biroz murakkabroq, nazarimda. Shanba kungi dars jadvalida yengilroq darslar qo'yilgan bo'lsa-da, o'quvchilarimda horg'inlik sezaman, ular o'quv-mashg'ulotlaridan biroz zerikkanday ko'rinadi, – deydi Toshkent viloyati, O'rta Chirchiq tumanidagi 5-umumta'lim maktabining 1-sinf rahbari Buvnisa Xonto'rayeva. – Endi bolajonlar ikki kunlik dam olish kunlarida ota-onalari bag'rida bo'lishlari, shu bilan birga, maktabda tashkil etilgan to'garaklarga qatnashishi mumkin.**

dunyoning barcha mamlakatlaridagi insonlar bolalar va o'smirlar uchun baxtli, sog'lom va xavfsiz hayot ta'minlanishi lozim, degan fikrga keldilar. Ular barcha bolalar maktablarda ta'lim olishlari, bemor bolalarga sifatli tibbiy yordam ko'rsatilishi, urush va zo'ravonlikdan himoya qilinishi, ushbu huquq normalari bolalarning qaysi mamlakatda yashashidan qat'iy nazar kafolatlanishi kerak, degan qarorni qabul qildilar. Buning natijasida «Bolalar huquqlari to'g'risida»gi Konvensiya ishlab chiqildi va imzolandi.

Davra suhbatida ko'tarilgan masala aynan OAVda nogironligi bo'lgan shaxslar, xususan, bolalar masalalarini yoritishning sifat darajasini yaxshilash, ko'ngli o'ksik inson-

larning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta'minlashda muhim rol o'ynashi ta'kidlandi.

– Nogironligi bo'lgan bolalar faqatgina xayriya obyektlari emas, balki huquq egalari ekanligini ommaga to'g'ri tushuntirish kerak, – deydi YUNISEFning O'zbekistondagi vakili Sasha GRAUMANN. – Ushbu masalalarni hal etishda tashkilotimiz O'zbekiston hukumati bilan yaqindan hamkorlik qiladi.

Davra suhbatida shuningdek, imkoniyati cheklangan bolalarning qariyb 90 foizi maxsus muassasalar, maktab-internatlarga qamrab olingani, zamon talablari darajasida ta'lim-tarbiya olayotgani, ushbu tadbirida o'rtaga tashlangan dolzarb fikr-mulohazalar istiqbolli media-reja ishlab chiqishda qo'l kelishi, shubhasiz ekanligi alohida ta'kidlandi.



Feruza SOYIBJON qizi





Ilm ila kimning dili ravshan erur,  
U zamon ichra salomat tan erur.

Fariduddin ATTOR

Ha-  
mid  
Olimjon  
va Zulfiya-  
xonimdek  
ulug' ijod-  
korlar oilasi  
vakili ekan-  
ligim men-  
ga katta  
mas'uli-  
yat yuk-  
laydi.



## ZULFIYANING CHEVARASIMAN

Kichkina ijodimdan Zulfiya ayajonim ijodlariga bag'ishlangan turli tadbir va ijodiy kechalarda faol ishtirok etib kelaman. Ayniqsa, O'zbekiston Ichki ishlar akademiyasida el sevgan shoirlar bilan bir safda Zulfiyaxonimning 100 yilligiga bag'ishlangan tadbir qatnashganimda juda hayajonlanganman. O'shanda sahnaga chiqib, baland ovozda she'r o'qiganman. Ayajonimga atalgan hujjatli filmida esa ularning bolaliklarini ijro etganman!

Rioyaxon buvijonim Zulfiyaxonimdan o'rganishimiz kerak bo'lgan ko'plab ibratli voqealar, go'zal fazilatlar haqida so'zlab beradi. Ular bilan ko'plab she'rlarni o'qib, yod olamiz. Bundan tashqari, pianinoda musiqa chalish jon-u dilim. Hozirda bolalar musiqa va san'at maktabida fortepiano yo'nalishi bo'yicha tahsil olmoqdaman. Shopen, Bax, Betxoven kabi bastakorlarning asarlarini sevib ijro etaman. Shuningdek, bo'sh vaqtlarimda shaxmat sport turi bilan shug'ullanaman. Shu kungacha Osiyo va jahon chempionatlarida ishtirok etib, bir qancha medallarga sazovor bo'ldim.

Biz qancha o'qib-o'rgansak, buyuk ajdodlarimiz kabi ona yurtimiz nomini dunyoga tanitamiz.

**Samirabonu OLIMJONOVA,**  
Toshkent shahar, Mirobod tumanidagi  
110-umumta'lim maktabining 6-«D» sinf o'quvchisi

Maktab ostonasidan kirib borar ekanmiz, yon-atrofning go'zalligini ko'rib, hayratga tushdik. Menga manzur bo'lgan jihat shu bo'ldiki, yangi innovatsion texnologiyalardan unumli foydalangan holda maktabning barcha hududida kuzatuv kameralari o'rnatilgan ekan. Rahbar xonasidagi monitor orqali esa butun muassasa kaftday ko'rinib turadi. Ta'lim maskanidagi ushbu qulayliklar yosh avlodni emin-erkin bilim olishlari uchun zamin yaratmoqda. Natijada, o'quvchilar ko'plab yutuqlarni qo'lga kiritmoqda. Xususan, mazkur o'quv yilida fan olimpiadalarining shahar bosqichida 9-sinf o'quvchilari – Ibrohim Agayev geografiya, Sahob Amonov biologiya, Diyora Raimjonova rus tili fanlaridan faxrli o'rinni egallab, respublika bosqichiga yo'llanmani

qo'lga kiritdi.

O'quvchilarning na-  
faqat ta'lim, balki sportda ham yutuqlari talaygina ekan. 7-sinf o'quvchisi Sa-

qo'lga kiritmoqda.

Shu kuni maktabga Xalq ta'limi vaziri o'rinbosari Alisher Sa'dullayev hamda in-



mandar Kamolov, 10-sinf o'quvchilari – Asadbek Mamadullayev, Kamolidin Mazairov sportning taekvando yo'nalishi bo'yicha, 9-sinfdan Abrorjon Yusufaliyev, 8-sinfdan Temur Muhammadjonov, Ziyodullo Tolipovlar o'zbek jang san'ati bo'yicha respublika miqyosida tashkil etilgan musobaqalarda qatnashib, faxrli o'rinni

gliz tili fani o'qituvchilari tashrif buyurgan ekan. Uchrashuv doirasida maktabning iqtidorli yoshlari bilan davra suhbat tashkillashtirildi. Tadbir o'quvchilar o'rtasida o'zaro hurmat, mehr-oqibat muhitini yanada mustahkamlash, yoshlarni umiminsoniy va milliy qadriyatlar, ezgu fazilatlar ruhida tarbiyalash lozimligi ta'kidlandi.

– Har bir o'quvchi qalbida yuksak orzular yashaydi. Ezgulik esa go'zal tuyg'ularni, g'oyalarni kamolga yetkazadi. Shu bois, yoshlarimizni o'qib, komillikka intilib yashashlariga zamin yaratmog'imiz lozim, – deydi maktab rahbari Mahmud aka Turg'unboev. – Bugungi uchrashuvdan ko'zlangan asosiy maqsad ham shunda. Zero, mamlakatimiz rahbarining «Yoshlar tarbiyasiga bugun e'tibor bermasak, ertaga kech bo'lishi mumkin», degan boqiy fikrlari barchamiz uchun dasturilamal bo'lib xizmat qilmog'i lozim.

**Jamolidin  
ABDULLAYEV**

## BUYUKLAR IZDOSHIMIZ

Ma'lumki, respublikamizdagi barcha ta'lim muassasalarida fevral – matematika fani oyligi hisoblanadi.

Oylik davomida o'quvchilarga har doimgidan-da ko'proq va qiziqarliroq bilim berishga harakat qilamiz. Ayniqsa, «O'qing, bu qiziq», «Matematika olamida», «Internet sahifalarida», «Antiqqa, antiqqa» mavzularidagi devoriy gazetalar bu borada alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Men o'quvchilarga matematika fanidan saboq beraman. Bizning 23-davlat ixtisoslashtirilgan umumta'lim maktabida ham matematika fani oyligi ko'tarinki ruhda tashkil etilmoqda. Makta-

bimiz fizika va matematika fanlarini chuqur o'rganishga ixtisoslashtirilgan bo'lib, o'quvchilar tanlov asosida qabul qilinadi. Maktabimizda faoliyat yuritayotgan barcha matematika fani o'qituvchilarining fan oyligi davomidagi darslar «Ochiq darslar» deb e'lon qilindi.

Yaqinda bilim maskanimizda «Buyuk ajdodlarga munosib voris bo'lamiz» mavzusida tadbir bo'lib o'tdi. Unda buyuk allomalarimiz Al-Xorazmiy, Beruniy, Mirzo Ulug'bekning asarlaridan tarixiy ma'lumotlar keltirildi.



Bundan tashqari, tadbirga faxriy ustozlar ham taklif etildi. Ular tadbir so'ngida so'z olib, o'quvchilarga hozirgi yaratilayotgan sharoit va imkoniyatlardan to'g'ri, samarali foydalanib, Vatan obodligi,

xalq farovonligi yo'lida xizmat qilishga chaqirdi.

**Avazbek TOJIBOYEV,**  
Andijon viloyati, Xo'jaobod  
tumanidagi 23-DIUM  
direktori



**Besh asrkim, nazmiy saroyini,  
Titratadi zanjirband bir sher!**

**Tong  
yulduzi**

## NAVOIYGA EHTIROM

**Prezidentimizning tarixiy shaxslar va allomalarning nomlarini abadiylashtirishga qaratilgan Qarorlari ijrosini ta'minlash maqsadida Qo'qon shahridagi 18-umumta'lim maktabi hovlisiga so'z mulkingning sultoni Alisher Navoiy haykali o'rnatildi.**

Haykalning ochilish tadbirida Qo'qon shahar hokimining yoshlar bilan ishlash bo'yicha o'rinbosari A.Ergashev, tuman XTB mudiri R.Rasulov, XTB ona tili va adabiyot fanlari uslubchisi L.Aliyeva hamda mahalla ahli ishtirok etdi.

Shu kuni ta'lim maskani o'quvchilarning ko'rgazma va devoriy gazetalari namoyishi tashkil etildi. Mehmonlarning Navoiy haqidagi fikrlari tinglandi. O'quvchilar tomonidan ijro etilgan alloma ijodiga mansub g'azal va ruboiylar, shoir bolaligi, o'smirligi haqidagi sahna ko'rinishi yig'ilganlarga manzur bo'ldi.

Eslatib o'tamiz, Alisher Navoiy haykal-buyusti haykaltarosh-usta Muxtorjon Muydinov tomonidan tayyorlandi.

**Nurbek QIDIRALIYEV**



**Maktablarda o'tkazilayotgan «Navoiyxonlik» va «Boburxonlik» oyligi o'quvchilarning adabiyotga doir bilimlarini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.**

## G'AZALXONLAR TAQDIRLANDI



Toshkent shahrining barcha ta'lim maskanlari qatori Yunusobod tumanidagi 122-umumta'lim maktabida ham bu kabi tadbirlar ko'tarinki ruhda tashkil etilmoqda.

O'tkazilayotgan fan oyligi o'quvchilar bilimi, qobiliyatini yuzaga chiqarishda katta ahamiyat kasb etadi, – deydi maktabning ona tili fani o'qituvchisi Dilafro'z Kamolova.

Oylik doirasida «Ajdodlari ulug' yurt farzandiman» mavzusida diktant, bayon va insholar tanlovi o'tkazildi. «G'azalxon o'quvchi» ko'rik-tanlovida esa Alisher Navoiy va Boburning ijod namunalari yoddan o'qildi, kuy-ko'shiq va raqslar ijro etildi. O'tkazilgan tadbirlar o'quvchilarda katta taassurot qoldirdi.

Yakunda faol o'quvchilar diplom va esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi.

**Nigora JO'RAYEVA**

**1-mart – Giyohvandlik va giyohvand moddalar bilan savdo qilishga qarshi xalqaro kurash kuni**

## GIYOHVANDLIK YOSH, VAQT, MILLAT TANLAMAYDI



Ong-u tafakkurning yo'qolishi, og'ir jinoyatlar va o'lim...

Bularning bari giyohvandlik asoratlardir. Asr vabosi hisoblangan bu illat bugun ko'plab oilalarning buzilishiga, ota-onalarning ko'z yoshiga, g'am-anduhiga sabab bo'lmoqda.

Bu borada yurtimizda talay ishlar amalga oshirilmoqda. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov 1998-yil BMT

Bosh Assambleyasining 48-sessiyasida so'zlagan nutqida dunyo ahlini narkobiznesga qarshi kurashda birlashishga da'vat etgani, 1999-yilda esa «Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to'g'risida»gi Qonunning qabul qilinishi giyohvandlikning oldini olishga muhim huquqiy asos bo'ldi.

Ayni dam, dunyo miqyosida ko'plab o'smirlar giyohvandlarga aylanib qolayotgani, ushbu og'u tufayli jinoyat sodir qilib, gul umrini panjara ortida o'tkazayotgani achinarli hol, albatta. Bolalarning nazoratsiz qolishi, ayrim yoshlarning keragidan ortiq moddiy ta'minlanishi, o'smirlarning turli ko'ngilochar joylarda notanish kimsalar bilan muloqotda bo'lishi, salbiy oqibatlarining debochasiga aylanmoqda.

Mutaxassislarining ta'kidlashicha, giyohvand moddalarni muttasil qabul qilgan insonda behollik, atrofdagilarga befarqlik, qo'pollik, hurmatsizlik alomatlari paydo bo'ladi. Giyohvandlarda, avvalo, immun tizimi buziladi, yomon sifatli o'smalarning rivojlanishi, organizmning kasalliklarga qarshi kurashishi sustlashadi va yuqumli kasalliklarga moyil bo'lib qoladi. Bu esa organizmning ich-ichidan yemirilishiga olib keladi. Giyohvandlik yosh, vaqt, millat va joy tanlamaydi. U har bir insonning zaharlashi, har birimizning hayotimizga chang solishi mumkin.

Shunday ekan, bu og'uning tarqalishiga qarshi kurashaylik.

**Ogina SAHOBIDDIN qizi**

## LAHZALARDA IZINGIZ QOLSIN!

**Ayrim bolalar dars tugashi bilanoq, tezroq uyga borsam-u, mazza qilib televizor ko'rsam, deydi. Ba'zilar bugun to'garakda qanday buyum yasashni o'rganarkanmiz-a, boshqasi esa bugun tezda ovqatlanib, kompyuterda o'yin o'ynayman, deydi. Ammo ayrim tengdoshlaringiz bo'sh vaqtida hunar o'rganib, turli tanlovlarda qatnashib, olgan bilim va ko'nikmalarini sinash barobarida ko'plab do'stlar orttirmoqda. Keling, bugun ana shunday vaqtini unumli o'tkazayotgan tengdoshlaringizga yuzlanamiz. Qani, ular nima der ekan?**

**Malika ZAKIRYAYEVA, Buxoro viloyatidagi 14-umumta'lim maktabining 8-sinf o'quvchisi:**

– Darslar tugagach, viloyat «Barkamol avlod» markazi qoshida ochilgan «Mohir qo'llar» to'garagiga boraman. Bolaligimdan tikuvchilikka qiziqaman. Ayniqsa, milliy bosh kiyimimiz – do'ppi tikishga ishtiyoqim baland. O'tgan yili badiiy ijod festival-tanlovining viloyat bosqichida do'ppi-do'zlik yo'nalishi bo'yicha 1-o'rinni egalladim. «Yosh hunarmand» ko'rik-tanlovida esa «Munchoqli bezak» yo'nalishida yasagan buyumlarim 1-o'ringa loyiq topildi. Kelgusida dizayner bo'lishni orzu qilaman.

**Sherzod SAYIMBETOV, Qoraqalpog'iston Respublikasi I.Yusupov nomidagi ixtisoslashtirilgan maktab-internatining 5-o'B sinf o'quvchisi:**

– Shaxmat – aql gimnastikasi, deyishadi. Chindan ham shaxmat o'ynash uchun kishidan alohida e'tibor va qunt talab qilinadi. Men ham bo'sh vaqtimda shaxmat o'ynayman. Ustozim Muhammadin Tajiddinov maktabda shaxmat musobaqasini



tez-tez o'tkazib turadi. Bu esa biz havaskorlarning tajribamizni oshishiga yordam beradi.

**Anvar ALIMOV, Toshkent viloyati, Oqqo'rg'on tumanidagi 3-umumta'lim maktabining 6-sinf o'quvchisi:**

– Bir kuni qo'limga sevimli yozuvchimiz Xudoyberdi To'xtaboyevning «Shirin qovunlar mamlakatida» kitobi tushib qoldi. Uni katta hayrat bilan o'qib chiqdim va «Men ham shunday fantastik hikoya yozsam-chi», degan fikr uyg'ondi. Bu xayol

kecha-yu kunduz menga tinchlik bermadi. Nihoyat, «Qizil Marsga sayohat» nomli to'qima fantastik janridagi ertak-hikoya yozdim. Hikoyam kitobcha shaklida o'rtoqlarim qo'lga yetib borganida, sevinchim ichimga sig'may ketdi. Kelgusida yanada ko'proq ijod qilib, bir-biridan qiziq, bolalarbop hikoya va ertaklar yozish niyatidaman.

**Dono xalqimiz orasida «Vaqtning ketdi – naqdning ketdi», degan naql bor. Chindan ham vaqt oqar daryo kabi birpasda o'tib ketadi. Demoqchimizki, umrning har lahzasidan unumli foydalaning.**

**Ozoda  
TURSUNBOYEVA**





# SPRING

(Bahor)

Read the text and underline nouns and verbs.

Spring is very beautiful season of the year. Everywhere will be in green clothes. Birds sing songs and the trees, flowers become awaking. In spring there are three national holidays in Uzbekistan, they are International Women's Day on March 8, Navruz which is celebrated on March 21 and Memory, Honor Day on May 9. In the Eastern countries Navruz celebrated as a New Year.

The day and night will be equal in that day. People clean their yards and houses. They sow and paint trees.

Uzbek nation organize khashar together in that day. Khashar is (voluntary public mutual aid in some kind of work) working with group. Also people visit to their relatives and parents with sweets or spring meals.

## Riddles

The biggest lamp on the sky  
We can't see it in the night.



It is our national food  
Granny cooks it very good.  
It just cooked long and long,  
We will mix it and sing a song.



Gulchehra SHOMALIKOVA,  
The teacher of Parkent agro-industry collage

## FIND THE KEY WORD



... is very beautiful season. Bahor juda chiroyli fasl.

Sevara BAHODIROVA,  
the pupil of lyceum ministry of foriegn affairs in Jizzakh region

## COUNTABLE OR UNCOUNTABLE?

Do you remember difference between countable and uncountable nouns? Let's check your knowledge.

Oil, paper, hour, university, language,  
apple, orange, oak, nut, cake, money, water, a cup  
of tea, mobile phone, sugar, pencil, hair, patrol.

Countable

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_



Uncountable

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

Mohira ABDUVOITOVA,  
the pupil of school № 31 in Bekobod district, Tashkent region

## WHAT DO YOU KNOW ABOUT ZULFIYA?

- ▶ Zulfiya Isrolova we know her by her pen name Zulfiya;
- ▶ Her first poem was published in 1931 in Uzbek newspaper «The Worker»;
- ▶ Her first collection of poetry «Pages of life» was published in 1932;
- ▶ Zulfiya worked for various publishers and was a member of several national organization in 1938;
- ▶ Zulfiya died at 81 years, on 23 August 1996 in Tashkent.



Write the name of famous poets

- 1 ... O'tar
2. Zahiriddin Muhammad ...
- 3 ... Navoi
4. Abdurauf ...
5. Hamid ...
6. Jahon Otin ...
- 7 ... Avloniy

Z  
U  
L  
F  
I  
Y  
A

From the internet materials Maqsuda ORIPOVA,  
the English teacher of school №4, Bukhara region

## TADBIR ENDI INGLIZ TILIDA

Buxoro tumanidagi 9-umumta'lim maktabida ingliz tilida Gulmira Saypiyeva tashkillashtirgan badiiy kecha «We learn the great poet A.Navoi» – «Biz buyuk shoir A. Navoiyni o'rganamiz» deb nomlandi. 3–5-sinfilar o'rtasida bo'lib o'tgan tadbirida 5-sinf o'quvchisi Abdullo Zoirov Navoiyning «Do dreams» nomli ruboiysini yoddan aytdi:

For many years as a recluse I hid away,  
Do dreams and visions come to one seeking life's pearl?  
Not surprisingly Navoi left for the desert  
Seeking solace from passion's impregnable pearl.  
3-«A» sinf o'quvchisi Malika Abdurahmonova allomaning «Without Fortune» nomli g'azalini zo'r mahorat bilan ijro etdi:  
Without Fortune and prospect, I ignite the fire  
Of impatience – the guards of prudence have vanished:  
My caravan defenseless in the coming fire.  
A lightning flash has struck and changed me utterly  
As rushes burst and spread in a sea of fire....  
Understand, Navoi, I deny my suffering  
As the Masandran forests turned red with fire.  
5-sinf o'quvchilaridan Aziz Ahmedov va Javohir Sayfiyev «Navoi and his friend» nomli sahna ko'rinishini namoyish etgan bo'lsa, Aziz Ahmedov va Rushana Yunusova esa «Navoiy va Guli» monologini qoyilmaqom tarzda ijro qildi.  
Tadbir so'nggida maktab direktori Salim Jo'rayev faol ishtirokchilarni yangi nashrdan chiqqan badiiy kitoblar bilan taqdirladi.  
Nozima JAVHAROVA



## GOOD-BYE WINTER

Can you remember winter weather? Read the sentences and find the weather

It's cool, it's chilly, it's nippy, it's cold, it's freezing, it's below zero, it's arctic, to wrap up.

1. If we wear a coat \_ it is chilly.
2. If we wear a warm coat and a scarf \_
3. If we warm hot jumper, coat, everything \_
4. Formal, used in weather reports \_
5. Weather for penguins stay at home \_
6. To put on and wear lots of warm clothes \_

Your teacher  
Ma'mura G'ULOMOVA





**Bolalikning bog'lari qayda,  
Ustoz, nega o'ltiribsiz jim?!**

## ONA AZIZ

Onamizni asraylik,  
Yuzga tushmasin ajin.  
Afsus chekib qolmaylik,  
Yillar o'tgani sayin.



Ulg'ayaman men hali,  
Aytildi ko'p gaplar.  
Yaxshi farzand onaga,  
Yaxshilik qilib yashar.

**Humoyun Mirzo RAHMONOV,  
Toshkent viloyati, Bo'ka tumanidagi  
5-umumta'lim maktabining  
7-sinf o'quvchisi**



## ZULFIYAGA IZDOSHMAN

Orzularim bir olam,  
Qo'limda qog'oz, qalam.  
Yaxshilikka yondoshman,  
Zulfiyaga izdoshman.

Cheksiz baxtiyordurman,  
Doim baxtga yordurman.  
Bu dunyoda bordurman,  
Zulfiyaga izdoshman.

Kelajagim oldinda,  
Ijod ila yorqin-da.  
O'zbekman baxtim shunda,  
Zulfiyaga izdoshman.

**Durdona MIRZARAIMOVA,  
Farg'ona viloyati, Beshariq  
tumanidagi 8-umumta'lim  
maktabining 8-sinf  
o'quvchisi**

## YAQIN DO'ST

Maktabimizda ma'naviyat darslari o'tkazish yaxshi an'anaga aylangan. 5-«A» sinfda bo'lib o'tgan ana shunday mashg'ulotlardan birida ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi Muattar Alimbekova o'quvchilarga savol berdi:

– Eng yaqin do'stingiz kim?

O'quvchilar biri qo'yib, biri javob bera boshladi:

– Mening eng yaqin do'stim Behzod, – dedi Abduqahhor.

– Men uchun eng yaqin do'st ota-onam, – dedi Gulchehra.

Sardor esa: – Men barchaga birdek yaqin do'stni bilaman, u kitob, – dedi. Sardorning bu fikri ustozga ma'qul keldi, shekilli:

– Xo'sh, sen nega shunday deb o'ylaysan? – deya izoh so'radi.

– Chunki kitob o'qisam, ko'nglimdagi g'ashlik yoziladi, nima yaxshi-yu nima yomon ekanini ham u o'rgatadi.

– Sinfdoshimiz to'g'ri aytaypti, ustoz, – deya Farangiz bugun avtobusda ko'rgan voqeasini so'zlab berdi:

– Boya avtobusda kelayotganimda, ikki ayolning suhbatini eshitib qoldim. Ulardan biri qizi tug'ilgan kunida otasidan biror qimmatbaho buyum so'ramay, kitob sovg'a qilishlarini aytganini afsuslanib so'zlab berdi.


Suhbatdoshi ham «Tavba, kitob ham sovg'ami», desa bo'ladimi?!

Shunda o'qituvchi tushuntira boshladi:

– Ba'zi insonlar kitobning qadriini bilmaydi. Lekin u eng yaqin do'st. Kitob hech qachon siz bilan xafalashmaydi, xiyonat qilmaydi. Demak, bugun do'stlaringiz soni yana bittaga ko'paydi...

Darsdan so'ng har bir bolaning ko'zi chaqnab, uyga otlandi. Ular yaqin do'stlari haqida oila a'zolariga ham aytib bermoqchi bo'ldi.

**Go'zal SODIQOVA,  
Toshkent shahar, Mirobod  
tumanidagi 214-umumta'lim  
maktabi o'qituvchisi**



# TOSHKO'GHADA QOLGAN BOLALIK

Otam akamni maktabga olib borgan kun, tinchim yo'qolgan kechagidek yodimda. O'shanda ilk bor, men ham o'qishga boraman deb, boshimni yerga urib yig'laganman. Otamning rahmi kelib, meni dast ko'targancha ilm dargohi tomon ravona bo'ldi. Maktabda bizga opam nomini bot-bot takrorlaydigan domla Bahromov peshvoz chiqdi. Ichkariga kirdik. Ustoz otamning qo'lidagi tug'ilganligimiz haqidagi guvohnomalarni olib, sinchkovlik bilan qaradi. Akamni o'qishga qabul qildi. Menga kelganda ikkilandi: – Buningiz ikki yildan keyin o'qishga keladi, – dedi qat'iy ohangda. Otamni yig'i bilan ko'ndirganim bois, Bahromov domlani so'zidan o'pkam to'lib, battar yig'lashga tushdim. Keyin otam sekin o'qituvchini chetga tortib, unga nimalarnidir shipshidi. Domla boshimni silab, meni yuqatishga tushdi. O'shanda endi besh yoshni qarshi olgan bo'lsam-da, birinchi qatoridagi qop-qora partaga salobat bilan o'tirish baxtiga erishdim. Ammo quvonchim uzoqqa bormadi. Ertasi kuni Bahromov darsga kirishimga ruxsat bermadi. Bolaligim kechgan toshloq ko'chalardan yig'lab-yig'lab uyga qaytganman. Kelasi yil, olti yoshimda otam bilan yana o'sha qadrdon ko'chalar bo'ylab ilm dargohiga bordik. Bu gal omadim chopdi. Temirov muallim meni 1-sinfga o'qishga qabul qildi. Shodlikdan olamga sig'may yurgan paytlarim o'sha kun bo'lgan, desam mubolag'a bo'lmaydi. Keyin qancha suvlar oqib o'tdi. Ko'z yoshi qilish hech narsani hal qilmasligini kech bo'lsa-da anglab yetdim...

Otamga nihoyatda mehrim baland edi. U kishidan sira uzoqlashgim kelmadi. Paxta terimi paytlari ham g'o'zalarga qoqilib, belimga gardi ro'molini bog'lagancha, ularga ergashib yurardim. Kun bo'yi urilib-surilib yurgan paxtam zo'rg'a 2-3 kilo bo'lardi. Nima bo'lganda

ham bolalikning o'sha sertashvish damlarini sog'inaveraman. Otam mening cheksiz osmonim ekan. U osmonda doim mehr quyoshi charaqlab turardi. Oldingi suhbatlarimda ham bot-bot ta'kidlaganim, to'rt yoshimda otamning bozordan olib kelgan «Afandi» kitobi menda ilk bor kitobga hurmat uyg'otgan. O'shanda kitob o'qishni bilmasam-da, «Afandi» kitobidagi rangli suratlariga mahliyo bo'lganman. Ayniqsa, rasmdagi Afandining bog'ga uzum o'g'irlashga kirgani-yu, bamaylitotir uzumlarni uzib savatchaga solishi tasvirlangan suratga uzoq tikilib o'tirardim. Uni Zulhayot opam menga shunday ta'riflagandi: yo'qchilik Afandini bog'ga o'g'irlikka kirishga majbur qilibdi. U bog'ga kirib, o'ziga o'zi: «Qani, mulla Nasriddin, oling uzum yeng», deydi. Uzumdan yeb shirinligini sezgach, «ozroq bolalarga ham oling» deya, savatga uzum soladi. Xullas har bir mevali daraxt yoniga borganida Afandi o'zini o'zi ham meva yeyishga ham, bolalari uchun olishga undaydi. Buni kuzatib turgan bog'bon Afandining orqasidan kelib, quloq-chakkasiga bor kuchi bilan shapaloq tushiradi. Qilmishidan uyalib qolgan Afandi beparvogina bog'bonning yuziga qaramay, «oling, mulla Nasriddin, tarsaki yeng», deydi. Negadir, opam menga o'qib tushuntirgan o'sha surat hayratimga hayrat qo'shgan. Chindan ham o'sha paytlar dehqon o'z mehnatining hosilidan bahramand bo'lolmay yashardi. Kitob o'qishni bilmasam-da, «Afandi» kitobimni hech kimga bermay, quchoqlab yuraveranman. Bir kuni uyda kitobimni yo'qotib qo'ydim. Uyni ag'dar-to'ntar qildim, ammo kitobni

topolmadim. Keyin oyoqlarimni yerga urib-urib yig'ladim. Ahvolimga achingan onam, sirni ochdi. Kitobni bir-ikki kun o'qish uchun Cho'ponqul tog'am olib ketganini aytdi. Tog'amning uyi bizdan ikki uy narida edi. Yig'lab bordim. Tog'am kitobni chiqarib bermaguncha darvozasi-niring yonida yig'lab o'tiraverdim.

Tog'am menga

(Voqeyiy hikoya)



o'shanda ilk bor qattiq gapirgandi. – Ma, ol, kitob ko'rmagan. Kitobingni yeb qo'yganim yo'q...

Oilada o'n ikki nafar farzand bo'lganimiz uchun sobiq tuzumning juda ko'p mashaqqatlarini boshdan kechirganmiz. Birgina otamning tinimsiz yelib-yugurishi o'n to'rt jonning qomini nonga to'ydirolmasdi. Buning ustiga, izma-iz tug'ilgan farzandlarning bir yo'la yettitasi maktabga qatnasa. Boshimizda bo'lsa, oyog'imizda yo'q bo'lgan zamonlar. To'rt chaqirim

uzoqdagi maktabga qatnashning o'zi bo'ladimi? Ayniqsa, qishning qahratonida azobimizni ko'rardik. Ukam Jabborning boshida telpagi yo'q. Mening esa etimimning qo'nji yorilgan. 1973-yilning qahraton qishi, «qaydasan, maktab» deya yuqori-layapmiz. Men 4-sinfda, ukam esa 2-sinfda o'qirdi. Darsimiz tushlikdan keyin bo'lgani uchun shomda uyga qaytardik. Izg'irinda kelyapmiz. Mening oyog'im, ukamning esa qulog'i muzlagandi. Tishimizni-tishimizga qo'yib kelyapmiz. Uyga yetib kelguncha ukam yig'laydi. U uyga kirib olgach, shunday qarorga keldi. – Katta bo'lganimda, eng avvalo, boshimga telpak olaman. Ukamning qaroridan hammamiz kulgandik...

Bugun o'yab ko'rsam, ukam Jabbor inson uchun aziz bo'lgan boshni asrash uchun to'g'ri qaror qilgan ekan... Yuqorida bot-bot ta'kidlaganim – yig'i hech narsani hal qilmasligini aytdim. Hayot – kurash maydoni. Inson urilib-surilib, ko'ngilning yuksak cho'qqilarini zabt etadi. Bugungi kun o'quvchisiga havas qilaman. O'qish uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan ta'lim maskanlarida tahsil olishyapti. Farzandlarimiz g'o'zalarga egilib yurishdan yiroqlashib, maktab quchog'idan joy oldi. Istiqlolning sarxil mevalari allaqachon o'z samarasini berayotgani ayon.

Aziz o'quvchi! Sizning bolaligingizga havas qilib, o'zimizning ortda qolgan mahzun bolalik yillarimni bir eslagim keldi. Umr juda tez o'tar ekan. Siz qimmatbaho onlarning qadriga yetib, ko'proq kitob o'qishga oshiqing. Bolalikning zalvorli yukini bo'yingizga olib, dunyo maydonlarida O'zbekiston bayrog'ini baland ko'tarib yurish zavqi hech qachon dilingizni tark etmasligini tilayman!

AXTAMQULI







## QO'QONLIK QUVONCHI

Joriy yil yanvar oyida futbol bo'yicha Xitoyda o'tkazilgan Osiyo chempionatida munosib ishtirok etib, chempion bo'lib qaytgan hamyurtlarimiz orasida Farg'ona viloyati, Qo'qon shahridagi 30-umumta'lim maktabida tahsil olgan Oybek Rustamovning borligi qo'qonliklarni behad quvontirdi.

Chempionning o'zi ta'lim olgan muassasaga tashrifi haqiqiy bayramga aylanib ketdi.

– Har qanday g'alaba tasodifan ro'y bermaydi. Muvaffaqiyat ortida a'lo o'qish, berilgan topshiriqlarni o'z vaqtida bajarish mas'uliyati, tinimsiz izlanish yotadi. Qayerda bo'lmay, maktabda saboq bergan ustozlarimning mehnatlarini oqlashga, xalqimizga munosib farzand bo'lishga harakat qilaman, – deydi futbolchi.

Uchrashuvda sport bilan salomatlikni mustahkamlash, kuchli, mard va qat'iyatli bo'lish mumkinligi haqida so'z bordi.

Tadbir yakunida sportchi o'quvchilarni qiziqtirgan savollarga javob berdi.

Muhammadsodiq ALIMOV

## TAEKVANDACHILARIMIZ 14 ta medalni qo'lga kiritdi

Keyingi yillarda o'zbekistonlik Sharq yakkakurashi ustalari xalqaro maydonlarda yuksak natijalar qayd etib, yurtdoshlarimizga bir olam quvonch ulashmoqda.

Kuni kecha Birlashgan Arab Amirliklarining Fujayra shahrida taekvandoning (WTF) turi bo'yicha o'tkazilgan yirik musobaqada ham atletlarimiz munosib ishtirok etib, shoda-shoda medallar bilan ona Vatanimizga qaytib keldi.

Sobir Nazaraliyev shogirdlaridan Amirbek To'rayev, Ulug'bek Rashidov, Intizor Abdalimova kabi sakkiz nafar sportchimiz barcha raqiblarini ortda qoldirib, yakunda oltin medalni qo'lga kiritdi. Shuningdek, finalga qadar bo'lgan qiyin yo'lni sharafla bilan bosib o'tgan Jasur Jaysunov va Durdona Abdulhayeva kumush medal bilan taqdirlandi.

Qizlar o'rtasida umidli taekvandochimiz E'zoza Shorustamova o'z iste'dodini namoyon etib, shohsupaning eng yuqori pog'onasidan joy egalladi.

**Aziz o'quvchilar! Bugun yurtimizda Prezidentimiz boshchiligida Sizlarning chuqur bilim olishingiz, sport bilan shug'ullanishingiz uchun barcha sharoitlar yaratib berilmoqda. Shunday ekan, bunday g'amxo'rlik va e'tibordan unumli foydalanib, chuqur bilim oling, o'z ustingizda izlanishdan aslo charchamang. Unutmang, yurtimiz kelajagi Siz kabi bilimdon va yuksak salohiyatli yoshlar qo'lidadir.**

Sa'dullo TURSINOV



## Sog' tanda sog'lom aql.

# ADABIYOT VA SPORT BAYRAMI

Navoiy viloyati, Uchquduq tuman bolalar va o'smirlar sport maktabi ma'muriyati hamda tuman xotin-qizlar qo'mitasi tomonidan 12-umumta'lim maktabida shaxmat bo'yicha musobaqa tashkil etildi.



Mazkur turnir buyuk alloma Zahiriddin Muhammad Boburning 535 yilligiga bag'ishlandi. Bunda Bobur ijodidan namunalar, sahna ko'rinishi va shaxmatga bag'ishlangan she'rilar ijro etildi. O'quvchilarning ajoyib raqsi yosh sportchilarni yanada ruhlantirdi.

Maktab direktori K. Po'latova, jismoniy tarbiya o'qituvchisi Sirojiddin Uzoqov hamda murabbiy Shohida Sayidova bahslarni munosib baholab bordi.

Tadbir yakunida faol o'quvchilar tuman «Qizil Yarimoy» jamiyati tomonidan taqdirlandi.

Shukrulla G'ULOMOV

## CHEMPIONLAR MAKTABI

Namangan viloyati, Pop tumanidagi 67-umumta'lim maktabida o'quvchilarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, sportga bo'lgan qiziqishlarini oshirish maqsadida talaygina ishlar amalga oshirilmoqda.

O'quv dargohida fan to'garaklari bilan birga, sport mashg'ulotlari faoliyati ham yo'lga qo'yilgan. Ta'lim maskanida o'z yutuqlari bilan tengdoshlari orasida ajralib turadigan o'quvchilar talaygina.

Jumladan, 9-sinf o'quvchilari – Sayyora Abduxalilova stol tennis bo'yicha O'zbekiston chempioni, Nazokat Soliyeva armrestling sport turi bo'yicha jahon chempionidir.

Maktab o'quvchilari «Umid nihollari» sport musobaqalarida ham faol ishtirok etib kelmoqda. Reja asosida o'tkazilgan turnirning tuman bosqichida maktabning futbol, yengil atletika, voleybol, kurash jamoalari umumjamoa hisobida 2-o'rinni, basketbol bo'yicha 1-o'rinni egalladi. Shuningdek, O'zbekiston yoshlar ittifoqi tomonidan tashkil etilgan shaxmat musobaqasida 8-sinf o'quvchisi Sherjahon Jo'rxonov 1-o'ringa sazovor bo'ldi.

Maktab o'quvchilarining bunday yutuqlarga erishishida ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari Nargiza Mirzarahmatova hamda jismoniy tarbiya o'qituvchilari – Elmurod Boyboboyev, Akmal Nurmatov, Jamshid Fayzullayev va Jamol Burxonovlarning hissasi katta.

Shohruh MUSAYEV





## HABIBULLO AKANING UY-MUZEYI

**Qishlog'imizdan oqib o'tuvchi kanalning tepa-rog'ida Habibullo aka istiqomat qiladi.**

U kishi tinib-tinchimas, har ishga mas'uliyat bilan yondashadigan inson. Uyining pastida bir gektar uzumzori bor. Habibullo aka har yili mo'l hosil yetishtirib, qishloq ahliga ulashadi. Aslida, uning kasbi shifokorlik bo'lib, oilaviy poliklinikada ishlaydi. Ayniqsa, ularning biz bolalarga bo'lgan e'tiborlarini alohida e'tirof etgim keladi. Uylaridagi uy-muzeyi doimo o'quvchilar bilan gavjum.

Yaqinda biz ham ustozimiz rahbarligida ana shu mo'jazgina maskanda bo'ldik. U yerdagi qadimiy buyumlar, mis tangalarni katta qiziqish bilan tomosha qildik. Endilikda Habibullo aka bankdan kredit olib, qishlog'imizda yangi muzey ochishni rejalashtirayotgan ekan. Biz ularga omad tilab, minnatdorlik bildirdik va ertasi kuni ona tili darsida bu haqida insho yozdik.



**Dilshod RAHMATULLAYEV,**  
Qashqadaryo viloyati, Yakkabog' tumanidagi 13-umumta'lim maktabining 9-sinf o'quvchisi



«Jetkinshek» gazetasi Qoraqalpog'iston bolalar va o'smirlarining sevimli nashrlaridan biridir.

## BIZ «JETKINSHEK» VA «TONG YULDUZI» O'QIYMIZ

Bu gazeta yoshlarning ijod olamida o'z o'rnini to'pishida katta o'rin tutadi. Gazeta sahifalarida o'quvchilarning iste'dodini o'stirish va ularni rivojlantirib borish maqsadida ko'plab uchrashuvlar, seminar-trening va tanlovlar o'tkaziladi. Yil davomida o'z ijod namunalari bilan faol ishtirok etgan o'quvchilar rag'batlantirib boriladi.

Iqtidorli, iste'dodli yoshlarni qo'llab quvatlashda «Tong yulduzi»ning ham o'ri beqiyos. Biz qoraqalpoq yoshlari bu gazetani ham birdek seviz o'qiydiz. O'z ijodiy ishlarimiz bilan muntazam qatnashamiz.

Shaxsan men ingliz tili sahifasini zo'r qiziqish bilan o'qib boraman. Qolaversa, o'z maqolalarim bilan faol qatnashaman. Yaqinda ustozimiz bilan Toshkent shahriga bordik va tahririyat xodimlari bilan yaqindan suhbatlashdik. Samimiy muloqotlardan olam-olam taassurot oldik. Ularga o'z ijod namunalarmizdan o'qib berdik. Ijodkor aka-opalarimiz biz yoshlarning yutuqlarimizni eshitib, behad quvonishdik.

**Dinora BEGDULLAYEVA,**  
QDU qoshidagi akademik litseyning 2-bosqich o'quvchisi

## BO'SH O'TIRMA, BOSH QOTIR!

**Aylanma krossvord javoblari soat mili yo'nalishida yoziladi.**

1. Alloma, «Navro'znom» asari muallifi.
2. G'alla o'simligi.
3. Sabzavot ekini.
4. Atmosfera hodisasi.
5. Katta qozon.
6. Ekin maydoni.
7. Botqoq qushi.
8. Qamish to'shama.
9. Fors guli (siren).
10. 12 oydan biri.
11. Gullar makoni.
12. Erta gullaydigan daraxt.
13. Piyoz navi.
14. Bo'yoq o'simligi.
15. Atlas turi.
16. Kuzgi mevali ko'chat.
17. Garmdori.
18. Keng tarqalgan mevali daraxt.
19. Yer tuti.
20. Eng qadimiy taom.
21. Qizlar ismi.
22. Danakli nordon meva.
23. Ilk bahor chechagi.
24. Eng chopqir jonivor.



**Tuzuvchi:**  
**Anvar MIRZAZODA**

## QAYLALI TOVUQ GO'SHTI



**Kerakli masalliq:** 0,5 kilogramm tovuq lahmi, 1 bo'lak baton non, 2 dona piyoz, 200 gramm qaymoq, 1 oshqoshiq mayonez, 200 gramm pishloq, 1-2 dona sarimsoqpiyoz, 1 ta tuxum, ta'ba ko'ra tuz, murch.

**Tayyorlanishi:** tovuq lahmi va piyoz go'shtqiyimalagichdan chiqariladi. Non bo'lagini sutga biroz bo'k'tirib, uni ham qiy-maga qo'shib qaytadan go'shtqiyimalagichdan o'tkaziladi. So'ng qorishmaga tuxum, tuz, murch solib aralashiriladi va yaxshilab pishiriladi. Keyin undan o'rta kattaalikdagi sharchalar yasaladi va 15-20 daqiqa davomida gaz pechida pishiriladi.

Qaymoq, sarimsoqpiyoz, mayonez aralashirilib, qayla tayyorlanadi va sharchalar ustidan quyilib, pishloq qirg'ichdan o'tkazilgach yana 15 daqiqaga gaz pechiga qo'yiladi.

Tayyor kottletlar qaynatilgan guruch yoki qovurilgan kartoshka bilan ikopchalarga solinadi.

**Yoqimli ishtaha!**

**Nargiza ABDULLAYEVA**



**Tong yulduzi**  
**Muassis:**  
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi

**Bosh muharrir**  
Feruz ADILOVA  
Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida  
0208-raqam bilan 2007-yil 2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

**TAHRIR HAY'ATI:**  
Qahramon QURONBOYEV, Dilshod KENJAYEV, Alisher SA'DULLAYEV, Laziz TANGRIYEV, Murtazo SULTONOV, Feruza JALILOVA, Ashurali JO'RAYEV (Bosh muharrir o'rinbosari), Feruz MATYOQUBOV (mas'ul kotib)

**Navbatchi muharrir**  
Axtamqul KARIMOV  
**Rassom**  
Feruzbek KAMOL o'g'li  
**Sahifalovchi-dizayner**  
Shaxobiddin MAXMADIYEV  
**Fotomuxbir**  
Zubayda HAMIDULLAYEVA

«O'zbekiston» NMIU bosmaxonasida chop etildi. Manzilimiz va bosmaxona manzili:  
Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 30-uy.  
Indeks: 100011.  
Obuna indeksi: 198.  
e-mail: [info@tongyulduzi.uz](mailto:info@tongyulduzi.uz)  
[www.tongyulduzi.uz](http://www.tongyulduzi.uz)  
Adadi - 73207  
Buyurtma - V 1157

Tahririyatga kelgan barcha qo'lyozmalar tahrir qilinadi, mualliflarga qaytarilmaydi.  
Shakli A-3, 2 bosma taboq. Bahosi kelishilgan narxda. Gazeta haftaning dushanba kuni chop etiladi.  
Topshirish vaqti - 18:00  
Topshirildi - 18:00  
Tel. /faks: (99871) 244-63-08